

SEREBROVASKULYAR KASALLIKLAR TASNIFI

Serebrovaskulyar kasalliklarning klinik tasniflari ko'p. Ularning aksariyati 1989-yili Jenevada qabul qilingan kasalliklarning 10-marta qayta ko'rib chiqilgan Xalqaro tasnifiga (KXT-10) asoslanib tuzilgan. KXT-10 da «Serebrovaskulyar kasalliklar» I60-I67 ruknlarda keltirilgan bo'lib, ular asosiy kasalliklar sifatida berilgan. Ularga, ya'ni bosh miyada qon aylanishining o'tkir buzilishlariga G45 ruknda keltirilgan «O'tib ketuvchi tranzitor ishemik atakalar» ham kiradi. Turli kasalliklar asorati sifatida rivojlangan serebrovaskulyar buzilishlar boshqa ruknlarda keltirilgan.

KXT-10 bo'yicha bosh miyada qon aylanishining o'tkir buzilishlari tasnifini keltirib o'tamiz (1-jadval).

1-jadval

Bosh miyada kon aylanishining o'tkir buzilishlari tasnifi (KXT-10 bo'yicha)

Nomlanishi	Kodi
Tranzitor ishemik atakalar	G45
Vertebrobazilyar arteriyalar havzasida	G45.0
Uyqu arteriyasi havzasida	G45.1
Bir nechta serebral arteriyalarda	G45.2
Insult	
Notravmatik subaraxnoidal qon quyilishlar	I60
Karotid sinusdan	I60.0
Miyaning o'rta arteriyasidan	I60.1
Oldingi biriktiruvchi arteriyadan	I60.2
Orqa biriktiruvchi arteriyadan	I60.3
Bazilyar arteriyadan	I60.4
Umurtqa arteriyasidan	I60.5
Boshqa arteriyalardan	I60.6

Miyaga qon quyilishi	I61
Bosh miyaning subkortikal sohasiga	I61.0
Bosh miyaning kortikal sohasiga	I61.1
Miya ustuniga	I61.3
Miyachaga	I61.4
Miya qorinchalariga	I61.5
Bosh miyaning bir qancha sohasiga	I61.6
Boshqa va noaniq intrakranial qon quyilishlar	I62
Ishemik insult	I63
Preserebral arteriyalar trombozida	I63.0
Preserebral arteriyalar emboliyasida	I63.1
Serebral arteriyalar trombozida	I63.3
Serebral arteriyalar emboliyasida	I63.4
Noaniq sabablar tufayli rivojlangan infarct	I63.9
Bosh miyada qon aylanishining aniqlanmagan o'tkir buzilishlari	I64
Utkir gipertonik (gipertenziv) entsefalopatiya	I67.4
Insult asoratlari	I69
Subaraxnoidal qon quyilish asorati	I69.0
Parenximatoz qon quyilish asorati	I69.1
Ishemik insult (miya infarkti) asorati	I69.3
Noaniq insult asorati	I69.8
Izoh: tasnif qisqartirib keltirilgan.	

KXT-10 statistik tahlil uchun moslab tuzilgan bo'lib, kasalliklarning klinikasini o'zida to'la aks ettirmaydi. Shu bois klinik tashxis qo'yishda klinik tasniflardan foydalanish talab etiladi.

Manba: ©Z. Ibodullayev. Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.

©Z. Ibodullayev. Nevrologiya. Qo`llanma., Toshkent, 2017., 404 b.

©Z. Ibodullayev. Insult va koma, Toshkent, 2013., 193 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi ©www.asab.uz